

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILA MUHITIDA ESTETIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNINI BELGILASHDAGI PEDAGOGIK TALABLAR.

*Qoraqalpoǵiston Respublikasi
Pedagogik maxorat markazi
Maktabgacha, boshlanǵich va maxsus
talim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna.*

Annotaciya. Maqlada maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tushunchalarni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Oila tushunchasining mohiyatini, estetik tarbiya va oilada shaxsning ma'naviy kamolotini ochib beradi. Maqola oilada ma'naviyat va axloqni yuksaltirish, oilada bolalarga estetik tarbiya berish samaradorligini oshirish muammolarini o'rghanishga bag'ishlangan bo'lib, bu o'z xalqi madaniyati va umuminsoniy qadriyatlarga qo'shilish imkonini berdi.

Oilada bolalarning estetik qarashlarini shakllantirishning eng maqbul shakli san'at turlari haqidagi ma'lumotlar, badiiy estetik qonuniyatlar haqidagi bilimlar orqali elementar qarashlarni shakllantirishdir. Bu borada musiqa, raqs, teatr, kino, tasviriylar va amaliy san'at, milliy hunarmandchilikning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos. Ularning tarbiyaviy ahamiyatidan oila sharoitida samarali foydalanish uchun esa ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan ta'lim-tarbiya tadbiralarining mazmuni, metodikasi, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu bugungi kun pedagogika ilmi uchun dolzarb mavzu sifatida e'tirof etilmoqda.

Kalit so'zlar. Estetik tarbiya, ma'naviy kamolot, oilaviy tarbiya, dunyoqarash, axloq, ma'naviyat, pedagogik talablar.

Аннотация. Статья рассматривает вопросы формирование у детей дошкольного возраста эстетических понятий, как социально педагогическая проблема. Раскрывает сущность понятия семья, эстетическое воспитание и духовное развитие личности в семье. Статья посвящена изучению проблемы воспитание духовности и нравственности в семье, повышение эффективности эстетического воспитания у детей в семье, что предоставило возможность приобщаться к культуре своего народа и общечеловеческих ценностей.

Оптимальной формой формирования эстетических взглядов детей в семье является формирование элементарных представлений посредством информации о видах искусства и знаний о художественно-эстетических закономерностях. В этом отношении воспитательные возможности музыки, танца, театра, кино, изобразительного и прикладного искусства, а также национальных ремесел

неоценимы. Для эффективного использования их воспитательного значения в семейных

Ключевые слова. Эстетическое воспитание, духовное развитие, семейное воспитание, мировоззрение, нравственность, духовность. педагогические требования.

Abstract. The article considers the formation of aesthetic concepts in preschool children as a social and pedagogical problem. Reveals the essence of the concept of family, aesthetic education and spiritual development of the individual in the family. The article is devoted to the study of the problem of raising spirituality and morality in the family, increasing the effectiveness of aesthetic education in children in the family, which provided an opportunity to join the culture of their people and universal human values.

The optimal form of forming children's aesthetic views in the family is the formation of elementary ideas through information about art forms and knowledge of artistic and aesthetic laws. In this regard, the educational opportunities of music, dance, theater, cinema, fine and applied arts, and national crafts are invaluable. To effectively use their educational value in family matters

Keywords. Aesthetic education, spiritual development, family education, worldview, morality, spirituality, pedagogical requirements.

Maktabgacha ta'lim yoshi shaxs shakllanishining dastlabki va eng muhim bosqichidir. Bu davrda bolalarda estetik tasavvur, did, go'zallikni anglash, atrof-muhitga nisbatan hissiy munosabat shakllanadi. Estetik tarbiya bolaning hissiy-irodaviy sohasi, ijodiy qobiliyati va duyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Bu jarayonda oilaning roli beqiyos. Bolaning birinchi tabiyachisi- ota-onas hisoblanadi va ularning madaniyati, didi, estetikfaoliyati bolaga kuchli tasir ko'rsatadi.

Komil inson ta'lim-tarbiyasining dastlabki poydevori oilada qo'yiladi. Inson ma'naviyatida madaniyat va san'at o'ziga xos ta'sirchan hamda samarali vosita sifatida alohida ahamiyatga molik. Oila ma'naviyati, madaniyati, oiladagi psixologik muhit, uning badiiy-estetik tamoyilari bolalarda turli mazmundagi tushuncha va tasavvurlarni shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

Estetik tasavvur-bu bolaning go'zallikni anglash, baholash va undan zavq olish qobiliyatidir. U tasviriy san'at, musiqa, tabiyat, atrof-muhit va insonlar munosabatlari orqali shakllanadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda bu qobiliyat ongli va hissiy taassurotlar asosida vujudga keladi.

Oilada bolalar estetik tasavvurlarni shakllantirish borasida barcha bop tavsiyalar, bu jarayonning mazmunini belgilashga qo'yilgan pedagogik va psixologik talablar ishlab chiqilmaganligi, qolaversa, bu didaktik jihatdan o'ta murakkab jarayon

ekanligi bois respublikamizda hammabop ko'rsatmalar amal qilmaydi. Bu murakkablikni bir qator omillar bilan tavsiflash mumkin.

Birinchidan, maktabgacha yoshidagi bolalar muntazam faoliyat ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi bolalarda nafaqat estetik mashg'ulotlar kompleksi mavjud bo'lib, uning me'yoriy asoslari "Maktabgacha ta'limning davlat talablari", dasturlari[98] "Uchinchi ming yillik bolasi"[142], kabi bir qator uslubiy qo'llanma qo'llanma va tavsiyalar mavjud. Bu dastur asosidagi mashg'ulotlar muntazam tarzda, belgilangan kun va soatlarda olib boriladi.

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarni asosan maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tarbiyachilar olib boradilar. Ular o'z faoliyatlarini yuqorida qayd etib o'tilgan me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etishga ma'sullar .

Uchinchidan, farzandi maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnovchi ota-onalar muassasa talablari u yoki bu materialni olib berish kabilarni qat'iy tarzda bajarishlari talab etiladi. Bu omil maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnamaydigan bolalardan bir munkha ustunlik qilishlarini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda muayyan bilim, tushuncha va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizim kasb-hunar kollejlari, pedagogik institutlari va universitet, shuningdek, viloyatlardagi Davlat universitetlari, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini oshirish Respublika metodik markazi, Respublika "Oila" ilmiy- amaliy Markazi, ilmiy tadqiqot muassasalarida jamiyatning ijtimoiy-pedagogik ehtiyoji, talablari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni muntazam tarzda takomillashtirilib boriladi. Aynan shunday yondoshuv, didaktik talablar asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimiga, uning mazmuniga ham lozim bo'lgan o'zgarishlar kiritib boradi.

Va nihoyat, beshinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan muntazam mashg'ulotlar yagona maqsad – bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Ular didaktik tashkil etilishi nuqtai nazaridan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi. Masalan, "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarda badiiy-tasviriy ijodiy faoliyat asoslari bilan tanishtiradi, bu mashg'ulotlar orqali bolalarda yozish, chizish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi, uning uchun qo'l mushaklarini rivojlantirish ta'minlanadi, atrof olam haqidagi, tabiat holatlari, fasllari xaqidagi tasavvurlari shakllantirilib, mustaxkamlab boriladi.

Yuqorida keltirilgan omillar maktabgacha yoshidagi bolalarda oilada estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini ishlab chiqish uchun muayyan pedagogik talablar, mezonlarga asoslanish lozimligini ta'kidlaydi.

Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda omillar turlicha ta'sir etadi. Bu omillar ichida ko‘p bor ta’kidlaganimizdek, oila eng asosiysi hisoblanadi. Zero, bolada tasavvur, tushunchalarining shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanishi. Bu davrda dunyoqarashni tevarak atrof, olamni anglab yetish ularni bola ongida shakllanishing mazmun, hajm, va sifat jihatidan eng salmoqli bosqichi ekanligini ilmiy dalillar bilan tavsiflab o‘tdik. Shuning uchun ham tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda maktabgacha yosh davri asosiy xisoblanadi. Bu tushuncha va tasavvurlar tizimida estetik tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzandlarimizning estetik tasavvurlarini oilada shakllantirishning eng asosiy shakli ularda san’at turlari haqidagi ma’lumotlar, badiiy estetik qonuniyatlar xaqida elementar bilimlarni tarkib toptirishdir. Bu borada musiqa, raqs, teatr, kino, tasviriy va amaliy san’at, milliy badiiy hunarmandchilikning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Qolaversa, har bir ota-onada mazkur san’at turlari haqida muayyan bilimlar, ularni ijro etish bolasiga amaliy ko‘rsatish darajasida malakalariga ham egalar. Muhimi, bu ko‘rsatmalarda “soxtalik” bo‘lmasligi lozim, aks holda u yoki bu san’at turi bilan tanishish jarayonida bolalarda noto‘g‘ri tasavvur shakllana boshlashi mumkin. Dastlabki taassurot ta’sir kuchiga ko‘ra muhimroq bo‘lganligi bois uni “to‘g‘rilash” biroz murakkabroq kechadi.

Bolalarda estetik tasavvurlarni oilada shakllantirish mazmunining tarkibiy qismlari ichida ta’sir kuchining yuqoriligi, ta’sir vositalarining turli-tumanligidan radio, televideniye, to‘ylar va boshqa marosimlardagi ijrolar, ayrim oilalardagi qo‘sish xirgoyisi va shu kabilar ham ta’sir vaqtining ko‘pligi, muntazamlik kasb etishi va boshqa jihatlari bilan musiqa san’ati alohida e’tiborni talab etadi. Ularni tanlab olishda qat’iy pedagogik talablarga rioya qilish talab etiladi. Bu talablar ichida musiqiy asarlarning mazmuni va mohiyatiga ko‘ra aynan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga mos keladiganlarini ijro etish yoki eshittirish o‘ta muhim pedagogik shartlardandir.

Bugungi kunda bolalardagi estetik qarashlar, tushunchalar, did borasidagi musiqiy qiziqishlar o‘z mazmuniga ko‘ra milliy an’alarimizga bizningcha ma’lum darajada zid tarzda rivojlanib bormoqda. Yuqorida keltirilgan dalillar bunga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek estradasi misolida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayonlarning pedagogik jihatidan tomoni shundaki, hozirgi davr yoshlari milliy musiqiy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlik, beparvolik, ta’bir joiz bo‘lsa, humatsizlarcha munosabatda bo‘lishi bilan birga, o‘zbekcha talaffuz ham buzilib borayapti. Bunga aynan estradadagi ba’zi “arboblar” sababchi bo‘lmoqdalar. Zero chiroyli, to‘g‘ri so‘zlay bilish ham madaniyatli insonning xislatlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan oilada bolalar bilan musiqiy madaniyat, musiqiy qadriyatlar, ulardagi an’anaviy ijrochilik xususiyatlari haqida suhabatlar olib borish ota-onalar, katta yoshdagi qarindoshlarning zimmasidagi muhim tarbiyaviy mas’uliyatdir. Shu bois ular

o‘z farzandlari, uka-singillarini radio, televizor, video va audio orqali tinglayotgan, ko‘rayotgan musiqalarini nazorat qilib borishlari talab etiladi. Ular ma’lum pedagogik mezonlarga mos bo‘lishi lozim. Bu bilan farzandlarimiz oilada zamonaviy estrada qo‘shiqlarini tinglamasinlar, degan fikr ham kelib chiqmasligi kerak. Faqat musiqa tinglashning mazmuni bolalarda o‘zimizga xos musiqiy estetik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilsin.

Farzandlarimizni estetik tasavvurlarni oilada shakllantirish nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham rang-barang hamda keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ular oilaviy bo‘lib teatr, konsertlarga tushish, ko‘rgazma zallari, muzeylarga, tabiatning go‘zal maskanlariga borish kabi madaniy-ma’rifiy tadbirlar bo‘lishi mumkin. Bu tadbirlarning ma’rifiylik jihatni shundan iboratki, avvalo ota-onai o‘zi muayyan darajadagi badiiy-estetik bilimlarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Bu ham maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirishga qo‘yiladigan pedagogik talablardan biridir. Shundagina ular o‘z farzandlarida estetik tasavvur va tushunchalarni shakllanishiga to‘g‘ri pedagogik rahbarlik qilishlari mumkin bo‘ladi. Bu nufuz madaniy-ma’rifiy tadbirlarning barcha bosqichlarida o‘z samarasini beradi. Bunday tadbirlarni uyushtirish ham o‘ziga xos pedagogik va psixologik jixatidan tayyorgarliklarni talab etadi.

Bolalarda estetik tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda ularning tabiiy moyilliklari, iqtidorlari mazmuniga ko‘ra to‘g‘ri yo‘naltirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ota-onalar o‘z farzandlarining xatti-harakatlarini maqsadli kuzatishlari, lozim bo‘lgan taqdirda ular mutaxassislarga maslahat so‘rab murojaat etishlari lozimligi ham bu jarayonning muhim pedagogik shartidir. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Ota-onai oilada o‘z farzandining estetik tasavvurini shakllantirish mazmunini belgilashda qanday pedagogik mezonlarga asoslanishi lozim? U pedagog-tarbiyachi rolida o‘zini qanday tutmog‘i kerak?

Avvalo, har bir ota-onai biz ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘z farzandlarida estetik tasavvurlarni shakllantirishni faqat maktab ta’limiga tayyorlash vositasi emas, balki bu millat ravnaqi bilan bog‘liq hodisa sifatida qarashlari lozim. Shuning uchun ham farzandlarining kamolidagi estetik mazmunga alohida e’tibor berishlari muhimdir. Birinchi o‘zbek professori, ma’rifatparvar alloma A.Fitratning ta’kidlashicha, farzand nafaqat oilaning davomchisi, balki millatning kuch-qudrati va shon-shavkatini belgilovchi omildir. Bu omilni sifatli bo‘lishida estetik mazmundagi mashg‘ulotlarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Oilada bolalarning estetik tasavvurini shakllantirishni nafaqat ularni estetik savodxon, estetik madaniyatli bo‘lishiga yo‘naltirish, balki millatning ijtimoiy holati, istiqboli bilan bog‘liq ijtimoiy muammo sifatida qarash joiz bo‘ladi. Shuning uchun ham oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurni shakllantirishda ota-onaning mas’uliyati katta. Bu mas’uliyat ulardan estetikaga aloqador sohalarni bilishni talab etadi.

Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi: Badiiy adabiyot. Kino san'ati, Teatr san'ati madaniyat va san'atni, Tasviriy san'at, xalq amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik namunalari.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, oila sharoitida bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini belgilashning pedagogik mezonlari, asosiy omillarini sanab o'tdik. Biz bu o'rinda tilga olmagan omillar ham mavjud bo'lib, ularning ayrimlari u yoki bu jihatiga ko'ra bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunida ustivorlik kasb etishi ham mumkin bo'ladi.

Bolalarda estetik tasavvurlarni shakllantirish badiiy qadriyatlarimizning boshqa turlarini ham samarali qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, me'morlik va uning tarixiga oid ma'lumotlar nafaqat estetik tasavvur, balki tarbiyaning boshqa jihatlari, xususan bolalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy tuyg'u kabi sifatlarni shakllantirishda ham alohida e'tiborga molik.

Oilada estetik tarbiyani samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik talablarga amal qilish zarur:

- yoshga mos faoliyat tanlash - bolaning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos mashg'ulotlar tanlanishi kerak.
- Faol ishtirokni ta'minlash - bolani faqat kiaztuvchi emas, ijodkor sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratish.
- Har xil san'at turlari bilan tanishtirish - musiqa, rassomlik, xunarmandchilik, raqs kabi sohalar orqali turli estetik taassurotlarni ta'minlash.
- Ota-onalarning estetik savodxonligi-ota-onalar bolalar bilan birga ishtirok etib, ularga namuna bo'lishi kerak.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi - Tarbiya jarayonida milliy an'analar bilan birga umuminsoniy go'zallik tushunchalarini qamrab olish.
- Bolaning hissiy holatini inobatga olish - unga zavq ba'gishlovchi, yaxshi kayfiyat uygotuvchi faoliyat turlarini tanlash.

Xulosa qilib aytganda oilada estetik tarbiya bola shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Unga qo'yiladigan pedagogic talablarga amal qilish orqali bolalarda go'zallikni taniydigan, his etadigan va qadrlaydigan estetik tafakkur asoslari yaratiladi. Shu boisdan, ota-onalar estretik faoliyatga ongli yondashishi va pedagogik maslahatlardan xabardor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi" Qonuni.- 2020. № URQ-637.
2. Mirziyoev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

3. Inomova M. Oilada bolalarning-ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. –T.: Fan 1995 yil.
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 qismli. 1-q. // V. I. Loginova, T. G. Samorukova tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1991. – 256 b.
5. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1994. – 150 b.
6. Jo'raeva G.T- Estetik tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslari.-Toshkent, 2021.
7. Qayumova S.X.- Maktabgacha talimda estetik tarbiya-Toshkent: O'qituvchi, 2019.

Ishtirokchi anketasi

Hudud	Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri
Muallif F.I.SH	Eshmuratova Gauxar Maxsudovna
Ish joyi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik maxorat markazi/
Lovozimi	O'qituvchi
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	yo'q
Maqola, máruza nomi	Maktabgacha yoshdagi bolalarda oila muhitida estetik tasavvurlarni shakllantirish mazmunini belgilashdagi pedagogik talablar
Shóba nomi	Pedagogika fanlari.
Konferensiyada ishtirok etish shakli (shaxsan yoki onlayn)	Online
Bağlanish ushın telefon raqam	99893 489-32-12
Elektron manzil (e-mail)	gauxareshmuratova7@gmail.com